

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ZOOLOGIYA INSTITUTI

AZIZOV NABI YARASHOVICH

**AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMI OVLANADIGAN
BALIQLARINING FAUNASI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавления автореферата диссертатсии доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Azizov Nabi Yarashovich

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ovlanadigan baliqlarining faunasi va ekologik xususiyatlari..... 3

Азизов Наби Ярашович

Фауны и экологические особенности промысловых рыб Айдар-Арнасайской системы озер 21

Azizov Nabi Yarashovich

Fauna and ecological features of commercial fish of the Aydar-Arnasai lake system 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ZOOLOGIYA INSTITUTI

AZIZOV NABI YARASHOVICH

**AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMI OVLANADIGAN
BALIQLARINING FAUNASI VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B1026 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Zoologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.izology.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Ulug'bek To'rayevich
biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Kuzmetov Abdulahmet Raimberdiyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Yuldoshev Mansur Orziqulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.B.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «5» may kuni soat 10⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232^b-uy, Zoologiya instituti majlislar zali Tel.: +998 71 289-04-65; E-mail: zoology@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1740-AR, raqami bilan ro'yxatga olingan). (100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232^b-uy, Tel.: +998 71 289 04 65)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «13» aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil «13» apreldagi № 6-raqamli reestr bayonnomasi).



B.R. Xolmatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor

G.S. Mirzayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d., professor

A.E. Kuchboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida aholi sonining doimiy ravishda ortib borishi, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi bandligini ta'minlash muammolarining tobora ortib borishga olib kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda sanoat usulida ovlangan baliqlar hisobiga 95 million tonnadan ortiq oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Bu ko'rsatkichni yanada oshirishga yo'naltirilgan oziq-ovqat xavfsizligi va aholi bandligini ta'minlash, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, suv resurslari va ularning biologik xilma-xilligini saqlashga qaratilgan, baliqchilikni barqaror iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsadlari belgilangan. Shunga ko'ra, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan baliqlarning biologiyasini o'rganish, ekologik xususiyatlarini aniqlash, baliq mahsuldorligini oshirish, resurslarini saqlash, zahiralardan oqilona foydalanish usullarini ishlab chiqish hamda optimallashtirilgan baliqchilik texnologiyalarini yaratish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda biologik xilma-xillikni saqlashni ta'minlagan holda, biologik resurslardan foydalanishni barqaror boshqarish, baliq mahsuldorligini oshirishning biologik asoslarini ishlab chiqish, mavjud baliq zahiralarni saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan baliqlarning zamonaviy holatini aniqlash, ekologik xususiyatlarini o'rganish, zahirlarini baholash, suv havzalari baliq mahsuldorligini oshirish hamda resurslaridan barqaror foydalanishni ta'minlashga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda baliqchilik sohasini rivojlantirish, baliq mahsulotlari turlarini ko'paytirish, suv havzalari imkoniyatidan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish, boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish choralari ko'rildi, tabiiy va sun'iy suv havzalarida mahsuldorlikni ko'paytirish hisobiga baliq ovlash hajmlarini oshirish hamda intensiv usulda baliq yetishtirish usullarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilinishi yo'lga qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 13 yanvardagi PQ-83-son «Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida¹ «baliq mahsulotlarini yetishtirish, tabiiy suv havza resurslarini aniqlash va monitoringini yuritish bo'yicha mavjud muammolarning ilmiy yechimini ta'minlash» kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, respublikaning suv havzalarida ovlanadigan baliqlar faunasining zamonaviy tur tarkibini aniqlash, baliq resurslari holatini baholash, ekologik xususiyatlari ochib berish, va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentyabrdagi «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi O'RQ-408-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 13 yanvardagi «Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-83-son Qarori.

mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi «Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 2939-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-apreldagi "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining biologik resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 347-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» mavzusidagi ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suv havzalari ixtiofaunasi, baliqlarning tashqi morfologiyasi va ekologik xususiyatlari, baliq mahsuldorligini oshirish, zahiralarni muhofaza qilish hamda resurslaridan oqilona foydalanish borasida xorijlik olimlar: J. Nilsson et al. (2014), L.N. Zanella et al. (2015), K.N. Nielsen et al. (2018), J.J. Shelley et al. (2018), E. Mekonnen et al. (2019), M. Lintermans et al. (2020), D. Tickner et al. (2020), R.A. Leidy, P.B. Moyle (2021), G. Su et al. (2021), Z.Y. Xuan et al. (2021), R. Miranda et al. (2022), H. Patricio et al. (2023), H.L. Yang et al. (2024) va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlari suv havzalarida baliqlarning turlar tarkibi, biologiyasi, morfologik va ekologik xususiyatlari, ularni muhofazami va resurslaridan barqaror foydalanish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar Ye.O. Kovalenko (2015), L.V. Shibayev (2016), Y.P. Karpova (2017), D.A. Balashov (2018), V.V. Shaganov (2018), N.M. Mirzoyev (2019), N.Y. Tropin (2020), N.V. Levashina (2020), A.V. Aldushin (2021), Y.I. Xrustalev (2021), N.O. Melnik (2021), V.A. Shatalin (2022), T.A. Telejnikova (2022), R.Y. Belogurova (2022), A.A. Gandlin (2023), A.I. Galeeva (2024), N.V. Kutsenyoko (2024) va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

O'zbekistonda suv havzalari ixtiofaunasining holatini baholash, baliqlarning morfologik va ekologik xususiyatlarini tavsiflash hamda baliq mahsuldorligini oshirish yo'llari bo'yicha tadqiqotlar M.A. Abdullayev (1969), G.K. Kamilov (1970, 1973), X.N. Nuriyev (1971, 1985), N.M. Xalmatov (1972), Y.A. Golubenko (1982), A.A. Amanov (1985, 1989), B. Xakberdiyev (1983, 1994), T.V. Salixov (1990), L.P. Pavlovskaya (1990), I.S. Tagayev (1991), U.T. Mirzayev (1994), G.M. Sayfullayev (1995), E.Sh. Gafurov (2003), B.Y. Jumabayev (2006), B.G. Kamilov (2019), M.A. Yuldashov (2019) va boshqalarning ilmiy ishlarida keltirilgan.

Biroq, yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy ishlar Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi baliqlarining zamonaviy tur tarkibi, tarqalishi, morfologik va ekologik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumotlarni bera olmaydi. Shunga ko'ra, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ixtiofaunasining zamonaviy tarkibini va strukturasi aniqlash hamda ovlanadigan baliqlarning morfo-ekologik xususiyatlarini va ularning baliqchilik xo'jaligidagi ahamiyatini ochib berish, baliq mahsuldorligini oshirish, resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Zoologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi gidrobiontlari ekologiyasini o‘rganish va baliq resurslari holatini baholash» (2020-2024) ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi baliqlar faunasining zamonaviy holatini baholash, turlarning morfologik o‘zgaruvchanligi va ekologik xususiyatlarini ochib berish hamda resurslaridan barqaror foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarning bajarilishi nazarda tutilgan:

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi baliqlar faunasining turlar tarkibini aniqlash;
ovlanish ahamiyatga ega bo‘lgan baliq turlarining tashqi morfologiyasini tavsiflash va morfometrik belgilarining o‘zgaruvchanligini aniqlash;

asosiy ovlanadigan va ayrim munozarali bo‘lgan baliq turlarini molekulyar-genetik tavsiflash;

ovlanish ahamiyatga ega bo‘lgan baliq turlarining reproduktiv biologiyasini tadqiq qilish, tabiiy ko‘payuvchanlik xususiyatlarini ochib berish;

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi baliq chavoqlarining hosildorligi va ovlanadigan baliq turlarining mahsuldorligini aniqlash;

ovlanish ahamiyatga ega bo‘lgan baliq resurslaridan barqaror foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan baliqlar olingan.

Tadqiqotning predmeti Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi ovlanadigan baliqlarining faunasi, tashqi morfologiyasi, morfometrik belgilarning o‘zgaruvchanligi, molekulyar-genetik tavsifi, ekologik xususiyatlari, tabiiy ko‘payuvchanligi va mahsuldorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ixtiologik, qiyosiy tahlil, molekulyar-genetik hamda variatsion-statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ixtiofaunasining zamonaviy tarkibi tahlili asosida 5 turkum, 7 oila, 15 urug‘ga mansub 15 (8 ta mahalliy, 7 ta invaziv) tur, shundan 12 tasi ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan turlar ekanligi aniqlangan;

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida ilgari qayd qilingan *Ctenopharyngodon idella*, *Hemiculter eigenmanni*, *Aristichthys nobilis*, *Scardinius erythrophthalmus* va O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan *Luciobarbus conocephalus* turlarining hozirda uchramasligi aniqlangan;

ovlanish ahamiyatiga ega bo‘lgan turlarning tashqi morfologiyasi tavsiflangan, morfometrik belgilarning o‘zgaruvchanligi asoslangan;

Cyprinidae, Percidae, Channidae oilalariga mansub 5 turning mtDNK COI sohasi nukleotidlar ketma-ketligi aniqlangan va genetik materialdagi farqlar asosida o‘zgaruvchanlik sabablari ochib berilgan;

asosiy ovlanadigan 8 baliq turining voyaga yetish, urchish, serpushtlik darajasi va tabiiy ko‘payuvchanlik xususiyatlari ochib berilgan, urg‘ochilarning mutlaq serpushtligi

ularning yoshi va tana o'lchamlari (uzunligi, vazni) bilan o'zaro kuchli bog'langanligi korrelyatsion va regression tahlil asosida isbotlangan;

baliq chavoqlarining miqdor ko'rsatkichlari va ovlanadigan baliqlarning mahsuldorligi aniqlangan hamda resurslaridan barqaror foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidagi ovlanish ahamiyatga ega bo'lgan baliqlarning tabiiy ko'payuvchanlik xususiyatlariga oid ma'lumotlar asosida baliq resurslaridan barqaror foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ovlanish ahamiyatga ega bo'lgan baliq resurslari holati, ularga putur yetkazuvchi omillar aniqlangan va baliq zaxiralarining qayta tiklanishini ta'minlash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan 5 turning mtDNK COI sohasi nukleotidlar ketma-ketligini aniqlash va Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) Genbank bazasiga joylashtirish orqali ushbu turlar identifikatsiyasi hamda filogenetik tadqiqotlari uchun manba yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiya ishda zamonaviy tadqiqot usullarining qo'llanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, tahlillar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, ularning xorijiy yuqori impakt-faktorli, Scopus ma'lumotlar bazasidagi nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilganligi, ma'lumotlar korrelyatsion, regression va statistik tahlil qilinganligi, amaliy natijalarning vakolatli davlat tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ixtiofaunasining tarkibi tahlil qilinganligi, baliq resurslarining zamonaviy holatining baholanganligi, ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan turlarining tashqi morfologiyasi tavsiflanganligi, morfometrik belgilarning o'zgaruvchanligi asoslanganligi, baliqlarning reproduktiv va tabiiy ko'payuvchanlik xususiyatlari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidagi iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan turlarning tabiiy ko'payuvchanlik sharoitlarini saqlash, zaxiralarining qayta tiklanishini ta'minlash, baliq resurslari muhofazasini tashkil qilish va ulardan barqaror foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish va takomillashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ovlanadigan baliqlarining faunasi va ekologik xususiyatlarini tadqiq qilishdan olingan ilmiy natijalari asosida:

molekulyar genetik tadqiqotlar natijasida baliqlarning Cypriniformes turkumi, Cyprinidae oilasiga mansub *Carassius gibelio*, *Cyprinus carpio*, *Rutilus lacustris* turlari, Perciformes turkumi, Percidae oilasiga mansub *Sander lucioperca* turi va Anabantiformes turkumi, Channidae oilasiga mansub *Channa argus* turlari mtDNK COI sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlar Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) ning 2025-yil, 21-sentabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada, *Carassius gibelio* – PX318480, *Cyprinus carpio* – PX232704, *Rutilus lacustris* – PX376248, *Sander*

luciperca – PQ394796, *Channa argus* – PX121652 turlari uchun identifikatsiya raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda turlarni aniqlash va filogeniyasini o‘rganish imkonini bergan;

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ovlanadigan baliqlar faunasiga oid 2 turkum, 2 oila, 6 urug‘, 6 turga mansub jami 26 ta namunalarda respublikada yetakchi bo‘lgan “Zoologiya kolleksiyasi” noyob obyektiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 6-noyabrdagi 4/1255-2469-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mavjud baliqlar kolleksiyasi fondini yangi namunalarda bilan boyitgan va iqtisodiy ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq resurslari holatini hamda zahirasini baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 19 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 39 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy jurnallarda 10 ta maqola, jumladan 9 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi, kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ixtiofaunasining o‘rganilganlik holati**» deb nomlangan birinchi bobida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining ixtiofaunasini o‘rganilish tarixi bo‘yicha olimlarning ixtiologik tadqiqotlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, yuqorida keltirib o‘tilgan ilmiy ishlar ko‘llar tizimi baliqlarining zamonaviy tur tarkibi, tarqalishi, morfologik va ekologik xususiyatlari haqida to‘liq ma‘lumotlar bera olmaydi.

Dissertatsiyaning «**Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ovlanadigan baliqlarining faunasi va ekologik xususiyatlarini o‘rganish usullari va tadqiqot materiallari**» deb nomlangan ikkinchi bobi ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, unda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining tabiiy geografik, gidrologik va geomorfologik tavsifi, tadqiqot materiallari va metodlari, tadqiqotlar o‘tkazilgan joylar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi bo‘limida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga kiruvchi Sharqiy Arnasoy, Tuzkon va Aydarko‘l ko‘llarining shakllanganligi, gidrologik holati, geomorfologik jihatdan joylashganligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Bobning 2.2-bo'limida Aydar-Arnasay ko'llar tizimi – Sharqiy Arnasoy, Tuzkon va Aydarko'l ko'llari ixtiofaunasi, ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan baliqlarning morfologiyasi va ekologik xususiyatlarini tadqiq qilish bo'yicha yig'ilgan materiallar va qo'llanilgan uslublar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqod uchun materiallarni to'plash 2020-2024 yillarda bahor, yoz, kuz oylarida Sharqiy Arnasoy, Tuzkon va Aydarko'l ko'llaridan katak o'lchamlari 30-75 mm, uzunligi 25-50 m bo'lgan turli xildagi baliq ovlash to'rlari, katak o'lchamlari 10-20 mm uzunligi 5 m bo'lgan tortma to'rlar va baliq tutqichi (sachok): (katak o'lchamlari 10 mm, diametri 80 sm) yordamda amalga oshirildi.

Materiallarni yig'ish va qayta ishlash umumiy qabul qilingan usullar yordamida amalga oshirildi (Pravdin, 1966; Metodicheskiye ukazaniya ... , 1986; Zinoviyev, Mandritsa, 2003; Romanov va boshq., 2012).

Baliqlarning tur tarkibi L.S. Berg (1948, 1949), P.G.Borisov, N.S.Ovsiyannikov (1964), Rossiyaning chuchuk suv baliqlari atlas (2003), A.F. Koblitskaya (1981), N.A. Myagkov (1994), I.M. Mirabdullaev va boshqalar (2002. 2011) bo'yicha aniqlandi. Baliqlarning taksonomiyasi va turlarning nomlari U.T.Mirzayev (1999, 2001), U.T.Mirzayev, A.Q.Quvatov (2020) tomonidan keltirilgan taksonomik ro'yxatiga muvofiq berilgan.

Baliq namunalarini o'lchash-hisoblash ishlari I.F. Pravdin (1966) tomonidan taklif qilingan baliqlarni o'lchash sxemalari bo'yicha tabiiy sharoitlarda tutilgan baliqlarda hamda laboratoriya sharoitida 4 va 10 foizlik formaldegid eritmasida fiksatsiya qilingan materiallarda olib borildi.

Morfometrik belgilar o'lchamlarining minimal va maksimal chegaralari (*Lim.*), o'rtacha ko'rsatkichi (*M*), o'rtachaning standart xatosi (*m*), standart (o'rtacha kvadratik) og'ish (σ), dispersiya (S^2), variatsiya koeffitsiyenti (*Cv*) hisoblab chiqildi. Belgilarni o'rtacha qiymatlari farqlarining ishonchliligi Student kriteriyasi (t_{st}) yordamida aniqlandi va 5 foizli ($P \leq 0,05$) ahamiyatlilik darajasi bo'yicha baholandi (Lakin, 1990; Rokitskiy, 1967).

Molekulyar-genetik tadqiqotlar olib borishda R.D.Ward va boshq. (2005) usullaridan foydalanildi. Olingan nukleotidlar ketma-ketligining tahlili BioEdit, BLAST maxsus kompyuter dasturlari yordamida amalga oshirildi.

Baliqlarning yoshi tangachalaridan tayyorlangan preparatlar bo'yicha MBS-1 binokulyari okulyar-mikrometri yordamida aniqlandi (Bryuzgin, 1969; Kafanova, 1984; Sterligova, 2016; Chugunova, 1959; Busacker, Adelman, 1990; Hagenmaier, 1987).

Baliqlarning ekologik xususiyatlari (jinsiy voyaga yetishi, urchishi, ko'payish biologiyasi) bo'yicha tadqiqotlar qabul qilingan usullarga asosan olib borildi (Ivankov, 1985; Sakun, Butskaya, 1968; Spanovskaya, Grigorash, 1976; Crim, Glebe, 1990). Urg'ochi baliqlarning serpushtligi IV-bosqichdagi uvildiriqlar asosida aniqlandi. Bunda Uvildiriq (gonada) og'irligi (*Mg*) grammada, individual mutlaq serpushtlik (*IMS* – ming ikra), individual nisbiy serpushtligi (*INS* – ikralar/g ichki a'zolarsiz tana vazni), yetuklilik koeffitsiyenti (*Yk*, %) hisoblab chiqildi (Spanovskaya, Grigorash, 1976). O'zgaruvchan belgilar o'rtasidagi bog'liqlik xarakterini aniqlash uchun bir faktorli regression tahlil metodi qo'llanildi (Лакин, 1990).

Barcha to'plangan materiallar biologik statistik usullaridan foydalangan holda qayta ishlandi (Lakin, 1990; Rokitskiy, 1967). Statistik ishlov berish, jadvallar va ma'lumotlarning grafik tasvirlarini tayyorlash Microsoft Excel dasturi, bir faktorli, korrelyatsion va regression tahlillar Minitab Statistical – v.18.0 (Minitab Inc., 2013: AQSh) dasturi yordamida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning «**Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ixtiofaunasining zamonaviy holati**» deb nomlangan uchinchi bobida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ixtiofaunasining turlar tarkibi hamda baliq turlarining tarqalish areallari va ko'llar tizimida taqsimlanishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar natijasida hozirda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining ixtiofaunasi tarkibi 7 oilaga mansub, 15 tur baliqdan iborat ekanligi aniqlandi. Iqlimlashtirilgan yoki tasodifan keltirilgan turlar – 7, mahalliy – 8 tur bilan ifodalanadi. Ixtiofauna tarkibining asosiy qismi Cyprinidae oilasi vakillariga to'g'ri keladi (15 tadan 9 tasi), ularning ulushi turlar umumiy sonining 60% tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ixtiofaunasining turlar tarkibi

T/r	TURLAR	I	II	III
CYPRINIDAE				
1.	<i>Hemiculter leucisculus</i> (Basilewsky, 1855)***	+	+	+
2.	<i>Carassius gibelio</i> (Bloch, 1782)**	+	+	+
3.	<i>Cyprinus carpio</i> (Linnaeus, 1758)*	+	+	+
4.	<i>Abramis brama orientalis</i> (Berg, 1949)*	+	-	-
5.	<i>Alburnus chalcoides aralensis</i> (Berg, 1923)*	+	+	-
6.	<i>Hypophthalmichthys molitrix</i> (Valenciennes, 1844)**	+	+	-
7.	<i>Leuciscus aspius iblioides</i> (Kessler, 1872)*	+	+	-
8.	<i>Rutilus lacustris</i> (Berg, 1916)*	+	+	+
9.	<i>Pelecus cultratus</i> (Linnaeus, 1758)*	+	+	-
SILURIDAE				
10.	<i>Silurus glanis</i> (Linnaeus, 1758)*	+	+	+
ESOCIDAE				
11.	<i>Esox lecius</i> (Linnaeus, 1758)*	+	-	-
POECILIDAE				
12.	<i>Gambusia holbrooki</i> (Girard, 1859)**	+	+	-
PERCIDAE				
13.	<i>Sander lucioperca</i> (Linnaeus, 1758)**	+	+	+
GOBIIDAE				
14.	<i>Rhinogobius brunneus</i> (Temminck et Schlegel, 1845)***	-	+	-
CHANNIDAE				
15.	<i>Channa argus</i> (Cantor, 1842)***	+	+	+
JAMI:		14	13	7

Izoh: I – Sharqiy Arnasoy ko'li, II – Tuzkon ko'li, III – Aydarko'l ko'li.

* – mahalliy, ** – iqlimlashtirilgan, *** – tasodifan keltirilgan turlar.

Sharqiy Arnasoy ko‘li ixtiofaunasining tarkibi, Tuzkon va Aydarko‘l ko‘llari ixtiofaunasining tarkibiga nisbatan turlar sonining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Sharqiy Arnasoy ko‘li ixtiofaunasining turlar tarkibi – 14 tur, Tuzkon ko‘li ixtiofaunasi – 13, Aydar ko‘li ixtiofaunasining turlar tarkibi esa – 7 tur bilan ifodalanadi.

Ilgari I.S. Tagayev (1991) tomonidan qayd qilingan 4 tur – oq amur (*Ctenopharyngodon idella* (Valenciennes, 1844)), Eygenman qirraqorini (*Hemiculter eigenmanni* Jordan & Metz, 1913), chipor do‘ngpeshona (*Aristichthys nobilis* (Richardson, 1845)), qizilparra (*Scardinius erythrophthalmus* (Linnaeus, 1758)) va O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan Turkiston mo‘ylabdori (*Luciobarbus conocephalus* Kessler, 1872) baliqlari hozirda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida uchramasligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning «**Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ovlanadigan baliq turlarining morfologik va molekulyar-genetik tavsifi**» deb nomlangan to‘rtinchi bobi ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, unda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ovlanish ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy baliq turlarining (*Carassius gibelio*, *Cyprinus carpio*, *Abramis brama orientalis*, *Alburnus chalcoides aralensis*, *Leuciscus aspius iblioides*, *Rutilus lacustris*, *Esox lecius*, *Sander lucioperca*) tashqi morfologiyasi, morfometrik belgilarining o‘zgaruvchanligi, solishtirma tahlili hamda 5 turning (*Carassius gibelio*, *Cyprinus carpio*, *Rutilus lacustris*, *Sander lucioperca*, *Channa argus*) molekulyar-genetik tavsifiga oid tadqiqot natijalari keltirilgan.

To‘rtinchi bobning 4.1-bo‘limida Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi asosiy ovlanadigan baliq turlarining tashqi morfologiyasi, morfometrik belgilarining o‘zgaruvchanligi, solishtirma tahlili ga oid ma’lumotlari yoritilgan.

Kumush tovonbaliq (*Carassius gibelio*). Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida quyidagi tashqi morfologik belgilar bilan tavsiflanadi: *D* III-IV 17-18, *A* III 5, *P* I 14-16, *VI* 7-8, *l.l.* 28-33, *sp.br.* 40-52, *vert.* 29-30 ta.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kumush tovonbalig‘ining tana uzunligi bilan bog‘liq bo‘lgan 19 ta morfometrik belgilari variatsiya koeffitsiyentlari tahliliga ko‘ra Sharqiy Arnasoy ko‘li kumush tovonbalig‘ining faqat bir belgisi (*IP*), Tuzkon ko‘li tovonbaliqlarining 3 belgisi (*H*, *IA*, *IP*) va Aydar ko‘li tovonbaliqlarining 7 ta belgisi (*H*, *lca*, *ID*, *IA*, *hA*, *IV*, *VA*) yuqori o‘zgaruvchanlikni namoyon etdi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kumush tovonbalig‘ining tashqi morfologik belgilari bir-biriga yaqin bo‘lib, faqat Sharqiy Arnasoy ko‘li tovonbalig‘i Tuzkon va Aydarko‘l ko‘llari tovonbaliqlaridan yon chizig‘idagi tangachalarning kamligi bilan ajralib turadi.

Sazan (*Cyprinus carpio*). Sharqiy Arnasoy, Tuzkon va Aydarko‘l ko‘llaridagi sazanning meristik belgilari bir-biriga o‘xshash bo‘lib, ular quyidagicha ifodalanadi: *D* III-IV 16-21, *A* III 5 ta. *l.l.* 34-38 ta.

Sazan balig‘ining plastik belgilari qiyosiy tahlil qilinganda, Sharqiy Arnasoy va Aydarko‘l ko‘llari namunalari o‘rtasida tananing 9 ta belgisi (*c*, *ao*, *io*, *H*, *aD*, *hD*, *IA*, *hA*, *VA*) va boshining 4 ta belgisi (*ao/c*, *po/c*, *hc/c*, *io/c*) bo‘yicha ishonchli farqlar aniqlandi.

Sharq oqchasi (*Abramis brama orientalis*). Ko'llar tizimida sharq oqchasining meristik belgilari ko'rsatkichlari quyidagicha tavsiflanadi: D III 9-10 ta, A III 24-27, P I 15 ta, V II 8, l.l. 51-55, sp.br. 23-26, vert. 43-44 ta.

Sharq oqchasining ko'pgina morfometrik belgilarining variatsiya koeffitsientlari juda kam o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi. Tana uzunligi bilan bog'liq bo'lgan 19 ta plastik belgilardan eng katta o'zgaruvchanlik faqat bir belgi – dum o'qining uzunligida (*lca*) namoyon bo'ldi. Yetti belgi – *o*, *hc*, *io*, *h*, *lD*, *hD*, *hA* o'rtacha o'zgaruvchan va o'nbir belgi – *c*, *ao*, *po*, *H*, *aD*, *pD*, *lA*, *lP*, *lV*, *PV*, *VA* eng kam o'zgaruvchan belgilar ekanligi aniqlandi. Boshning 5 ta (*ao/c*, *o/c*, *po/c*, *hc/c*, *io/c*) plastik belgilarining barchasi kam o'zgaruvchanlikni namoyon etadi.

Urg'ochi va erkak baliqlar o'rtasidagi farqlar tana uzunligi bilan bog'liq belgilarining 6 tasida (*H/l*, *aD/l*, *hA/l*, *lV/l*, *PV/l*, *VA/l*) va boshi bilan bog'liq belgilarining 2 (*o/c*, *io/c*) tasida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Orol moybalig'i (*Alburnus chalcoides aralensis*). Ko'llar tizimida Orol moybalig'ining meristik belgilarining ko'rsatkichlari quyidagicha tavsiflanadi: D III 7-9 ta, A III 13-16, P I 12-14, V II 8, l.l. 56-66, sp.br. 23-28, vert. 40-44 tani tashkil qiladi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi Orol moybalig'i balig'ining *ao/l*, *o/l*, *hc/l*, *H/l*, *lD/l*, *hA/l* belgilari yuqori o'zgaruvchan, *c/l*, *io/l*, *hD/l*, *lA/l*, *lV/l*, *PV/l*, *VA/l*, *ao/c* belgilari o'rtacha o'zgaruvchan, *po/l*, *h/l*, *aD/l*, *pD/l*, *lca/l*, *lP/l*, *o/c*, *po/c*, *hc/c*, *io/c* belgilar kam o'zgaruvchanlikka ega ekanligi, urg'ochilari erkaklaridan *o/l*, *H/l*, *aD/l*, *pD/l*, *PV/l*, *VA/l*, *o/c* belgilarining kattaligi bilan farq qilishini aniqlandi.

Orol oqqayrog'i (*Leuciscus aspius iblioides*). Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida Orol oqqayrog'ining meristik belgilarining ko'rsatkichlari quyidagicha tavsiflanadi: D III 8-10 ta, A III-IV 12-14, P 14-17, V 7-9, l.l. 73-87, sp.br. 8-10, vert. 48-50 ta.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi Orol oqqayrog'i plastik belgilarining variatsiya koeffitsiyentlari 4,15-12,65 foizgacha o'zgarib turishi, shundan, *ao/l*, *o/l*, *hc/c*, *H/l*, *lca/l*, *hA/l* belgilar yuqori o'zgaruvchan, *po/l*, *io/l*, *pD/l*, *hD/l*, *lA/l*, *lP/l*, *lV/l*, *ao/c*, *o/c* belgilar o'rtacha o'zgaruvchan, *c/l*, *h/l*, *aD/l*, *lD/l*, *PV*, *po/c*, *hc/c*, *io/c* belgilar kam o'zgaruvchanlikka ega ekanligi aniqlandi. Urg'ochi va erkak oqqayroqlar o'rtasidagi farqlar *c/l*, *o/l*, *H/l*, *PV/l*, *o/c* belgilarda namoyon bo'ldi. Urg'ochi va erkak baliqlar o'rtasidagi bosh uzunligi (*c/l*) va ko'z diametri (*o/l*, *o/c*) bo'yicha aniqlangan farqlar Orol oqqayrog'i uchun jinsiy dimorfizmning namoyon bo'lishiga yoki ularning umumiy ko'rinishidagi (o'lchami, rangi va boshqalar) farqlar toifasiga kirmaydi. Urg'ochilarda tana balandligi (*H/l*) va pektoventral masofaning (*PV/l*) oshishi esa, ehtimol, ikralarning rivojlanishi va qorin bo'shlig'i devorlarining cho'zilishi bilan bog'liqdir. Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko'llaridari oqqayroqlar bir-biridan tanasining 3 ta va boshining 2 ta belgisi bilan farqlanishi aniqlandi.

Orol qizilko'zi (*Rutilus lacustris*). Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida Orol qizilko'zi quyidagi meristik belgilari bo'yicha tavsiflanadi: D III 9-11, A III 9-11, P I 14-16, V I 8-9, l.l. 38-45, sp.br. 9-12, vert. 39-40 ta.

Orol qizilko'zining aksariyat morfometrik belgilarining variatsiya koeffitsiyentlari o'rtacha darajadagi o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi. Orol qizilko'zining qiyosiy morfologik tahlili shuni ko'rsatdiki, Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko'llaridagi qizilko'z tashqi morfologiyasi jihatidan bir-biriga juda o'xshash. Bunday o'xshashlik, birinchi navbatda, ularning yashash sharoitlarining o'xshashligini aks ettiradi. Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko'llaridagi qizilko'z boshining kichikligi va tanasining balandligi, Aydarko'l ko'lidagi esa nisbatan tumshug'i va tanasining cho'zinchoqroqligi bilan xarakterlanadi.

Cho'rtanbaliq (*Esox lucius*). Cho'rtanbaliq Sharqiy Arnasoy ko'lida meristik belgilarga ko'ra quyidagicha xarakterlanadi: *D* V-IX 13-17, *A* III-VII 11-14, *P* I 10-14, *V* 9-12, *l.l.* 116-125, teshikli tangachalar – 45-51 ta. *sp.br.* 34-38, jabra nurlari – 13-15, *vert.* – 57-61 ta.

Tadqiqotlar natijasida o'rganilgan 19 ta plastik belgilardan 13 tasi sezilarli o'zgaruvchanlikka ega ekanligi aniqlandi. Urg'ochi va erkak baliqlar o'rtasidagi aniqlangan farqlar, asosan urg'ochi baliqlarning *ao*, *H*, *aD*, *pD*, *lca*, *lD*, *hD*, *lP*, *VA*, *ao/c* belgilari ko'rsatkichlarning kattaligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, cho'rtanbaliqni tana o'lchamlari (o'rtacha 38,0 *sm*; 38,0±0,91) va yoshining (3-4 yoshgacha) oshib borishi bilan, barcha plastik belgilari yuqori o'zgaruvchanlikka uchrashi va jinsiy yetuklikka erishgandan keyin esa (4+ yoshda) barqarorlashishi aniqlandi.

Oq sla (*Sander lucioperca*). Ko'llar tizimida oq sla meristik belgilarining ko'rsatkichlari quyidagicha tavsiflanadi: *D*₁ XII-XV ta, *D*₂ II-III 20-23 ta, *A* II-III 10-13, *l.l.* 89-103, *sp.br.* 10-14, *vert.* 43-46 ta.

Tadqiqotlar natijasida oq slaning plastik belgilarining variatsiya koeffitsiyenti 3,73-15,23 foizgacha o'zgarib turishi aniqlandi. Urg'ochi va erkak baliqlar o'rtasidagi farqlar *H/l*, *h/l*, *hD₂/l*, *hA/l*, *VA/l* belgilarda namoyon bo'ldi. Sharqiy Arnasoy va Tuzkon ko'llarining oq slalari bir-biridan tanasining 10 ta belgisi va boshining 1 ta belgisi, Sharqiy Arnasoy va Aydarko'l slalari esa mos ravishda 4 va 6 ta belgisi bilan farqlanishi aniqlandi. Tuzkon va Aydarko'l ko'llari slalari o'rtasidagi farq tanasining 9 belgisi va boshning 4 ta belgisida namoyon bo'ldi.

To'rtinchi bobning 4.2-bo'limida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidagi Cypriniformes turkumi, Cyprinidae oilasiga mansub *Carassius gibelio*, *Cyprinus carpio*, *Rutilus lacustris*, Perciformes turkumi, Percidae oilasiga mansub *Sander lucioperca* va Anabantiformes turkumi, Channidae oilasiga mansub *Channa argus* turlarining molekulyar-genetik tavsifiga oid tadqiqot natijalari keltirilgan.

Filogenetik tahlil natijalari *Carassius gibelio* ning *C. auratus* kompleksi bilan yaqin filogenetik munosabatda ekanini, *C. carassius* esa genetik jihatdan ancha farq qiluvchi mustaqil tarmoqni tashkil etishini ko'rsatdi.

C. carpio ning nukleotidlar ketma-ketliklari tahliliga ko'ra *Cyprinus* urug'iga mansub turlar orasida 2 ta klad (monofiletik guruh)larga birlashganligi aniqlandi.

Tdqiqot natijalariga ko'ra, Aydarko'l ko'ldan to'plangan *Rutilus lacustris* (PX376248 UZB) namunasi Xitoydan olingan *R. rutilus lacustris* (KT716365)

Kumush tovonbaliq Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimida 2-3 yoshida, tana uzunligi 14-15 *sm* bo‘lganida jinsiy voyaga yetadi. Urchish davri aprel-may oylariga to‘g‘ri keladi. Urg‘ochi tovonbaliqlarning urchishdan oldingi yetuklik darajasi 10,2 dan 21,2 foizgacha boradi. Ko‘llari tizimida urg‘ochi tovonbaliqlarning mutlaq serpushtligi tana uzunligi 14,5-27,2 *sm* bo‘lgan baliqlarda 6940-123279 dona ikragacha o‘zgarib turdi (2-jadval).

2-jadval

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidagi urg‘ochi kumush tovonbaliqlarning reproductiv ko‘rsatkichlari

<i>l, sm</i>	<i>W, g</i>	<i>Yk, %</i>	<i>IMS</i>	<i>INS</i>	<i>n</i>
Sharqiy Arnasoy ko‘li					
$\frac{14,5 - 26,9}{21,4}$	$\frac{95 - 710}{320,3}$	$\frac{10,2 - 17,8}{13,9 \pm 0,44}$	$\frac{6940 - 119856}{48559,3 \pm 5667,2}$	$\frac{96,3 - 220,8}{164,9 \pm 7,78}$	26
Tuzkon ko‘li					
$\frac{15,3 - 27,2}{20,9}$	$\frac{117 - 713}{309,7}$	$\frac{10,8 - 21,2}{15,5 \pm 0,86}$	$\frac{13447 - 123279}{52903,1 \pm 8599,3}$	$\frac{137,2 - 286,6}{221,1 \pm 11,1}$	14
Aydarko‘l ko‘li					
$\frac{16,0 - 26,3}{19,8}$	$\frac{115 - 554}{245,6}$	$\frac{12,6 - 20,6}{15,7 \pm 0,78}$	$\frac{13260 - 99540}{42565,6 \pm 7220,6}$	$\frac{122,0 - 321,5}{219,6 \pm 15,6}$	13

Korrelyatsion va regression tahlil natijalariga ko‘ra, kumush tovonbaliq urg‘ochilarining mutlaq serpushtligi baliq yoshi, tana uzunligi va vaznining ortib borishiga qarab o‘sib borishi kuzatildi. Baliqning yoshi, tana uzunligi va vaznining oshishi bilan nisbiy serpushtligining tabiiy o‘sishi kuzatilmadi.

Sazan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida 3-4 yoshda jinsiy jihatdan voyaga yetishi aniqlandi. Urg‘ochi sazanning urchishdan oldingi yetuklik darajasi 4,4-11,4 %. Sharqiy Arnasoy ko‘lidagi tana uzunligi 23,1-55,0 *sm* bo‘lgan urg‘ochi sazanning mutlaq serpushtligi 20328-308826 (99291,2±11011,5) ikrani, Tuzkon ko‘lida uzunligi 20,1-50,0 *sm* bo‘lganda 28300-270765 (87310,9±12220,1) ikrani, Aydarko‘l ko‘lida esa uzunligi 20,1-45,0 *sm* bo‘lganda 27248-270600 (91151,6±14516,0) dona ikrani tashkil qildi. Individual mutlaq serpushtligi urg‘ochi baliqlarning yoshi, tanasining uzunligi va vaznining ortishi bilan oshib boradi. Bunda u ko‘proq vazni bilan ($r = 0,945$; $P < 0,01$) bog‘liqdir.

Sharq oqchasi Arnasoy ko‘lida 3 yoshda tanasining uzunligi 16,0-20,0 *sm* bo‘lganda jinsiy jihatdan yetiladi. Aprel oyining oxiri – may oyining boshlarida urchiydi. Urchish davridan oldidan sharq oqchasi jinsiy mahsulotlarining yetuklik darajasi 7,9-14,1 foizni tashkil qiladi. Mutlaq serpushtlikligi (o‘rtacha 35870,07±4622,71 ikra) baliq yoshi, tana uzunligi va vaznining ortib borishiga qarab o‘sib boradi. Nisbiy serpushtligi asta-sekin o‘sib, 4 yoshda maksimal darajaga yetadi (188,5 dona ikra) keyin esa pasayadi.

Orol moybaliq‘i Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida 2+ yoshida, tana uzunligi 16-17 *sm* va vazni 85-100 *g* bo‘lganida jinsiy voyaga yetadi. Urchish davri aprel-may oylariga to‘g‘ri keladi. Urg‘ochi moybaliqlarning urchishdan oldingi yetuklik darajasi 11,9-16,2 (14,5±0,44) foizgacha boradi. Sharqiy Arnasoyda urg‘ochi moybaliqlarning mutlaq serpushtligi uzunligi 16,2-22,1 *sm*, vazni 85-208 *g* bo‘lganda 9958-19292 (14854,5±1192,9) ikrani, Tuzkon ko‘lida esa uzunligi 17,7-

23,5 sm, vazni 105-225 g bo'lganlarida 10995-20304 (15671,1±1009,8) dona ikrani tashkil qildi.

